

BANKLARARO RAQOBAT VA UNING BANK TIZIMI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI

Jo'rayev Isroil Ibrohimovich
Toshkent moliya instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada banklararo raqobat va uning mamlakat bank tizimi barqarorligini ta'minlashdagi roli ko'rib o'tilgan. Shuningdek, mamlakatimizda banklararo raqobatning joriy holati va unga xos bo'lgan tendensiyalar, bank tizimi barqarorligi va unga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilingan va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: raqobat, banklararo raqobat, bank kapitali, kredit portfeli, bank barqarorligi, bank rentabelligi, bank likvidligi.

МЕЖБАНКОВСКАЯ КОНКУРЕНЦИЯ И ЕЕ РОЛЬ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОСТИ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ

Жураев Исроил Ибровимович
Ташкентский финансовый институт

Аннотация. В данной статье рассматривается межбанковская конкуренция и ее роль в обеспечении стабильности банковской системы страны. Также проанализировано современное состояние межбанковской конкуренции в нашей стране и ее специфические тенденции, стабильность банковской системы и факторы, влияющие на нее, и даны выводы.

Ключевые слова: конкуренция, межбанковская конкуренция, банковский капитал, кредитный портфель, устойчивость банка, рентабельность банка, ликвидность банка.

INTERBANK COMPETITION AND ITS ROLE IN ENSURING THE STABILITY OF THE BANKING SYSTEM

Jurayev Isroil Ibrohimovich
Tashkent institute of finance

Annotation. This article examines interbank competition and its role in ensuring the stability of the country's banking system. In addition, the article analyzes the current state of interbank competition in our country and its specific trends, stability of the banking system and the factors influencing it. Relevant conclusions have been developed.

Key words: competition, interbank competition, bank capital, loan portfolio, bank stability, bank profitability, bank liquidity.

Kirish.

Mamlakatimiz bank tizimida so'nggi yillarda raqobat muhitining ijobiy tomonga o'zgarib borayotganligi banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishga, bank xizmatlari soni va sifatini yanada yaxshilanishida muhim rol o'yamoqda. Banklar o'rtasidagi raqobat darajasining oshib borayotganligi banklar tomonidan mijozlarni jalb qilish maqsadida kreditlar, depozitlar va boshqa moliyaviy mahsulotlar bo'yicha yanada qulay shartlarni taklif qilish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Bu o'z navbatida, bank sohasida xizmat ko'rsatish sifati va innovatsiyalarning yaxshilanishiga, mavjud resurslardan yanada samarali foydalanishiga, o'z xarajatlarini optimallashtirishga, bank biznesi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda banklar sonining ortib borayotganligi, bank tizimiga raqamli texnologiyalarning keng joriy etilayotganligi, shuningdek, xorijiy banklar filial va bo'linmalari sonining ortib borayotganligi, bank tizimini yanada erkinlashtirish borasidagi islohotlar ko'laming kengayayotganligi, banklar faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarining yangi bosqichga ko'tarilayotganligi banklar o'rtasida raqobatning yanada ortishiga sabab bo'lmoqda.

Shunga qaramasdan, mamlakatimizda davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar o'rtasidagi raqobat darajasining ma'lum darajada cheklanib qolayotganligi, moliyaviy bozorlarning kam rivojlanganligi, bank tizimida ayrim imtiyozlarning saqlanib qolayotganligi, aholining moliyaviy savodxonligining umumiy darjasи, davlat banklarida rentabellik darajasining past darjasи, muammoli aktivlar hajmining ortib borayotganligi va boshqa omillar mamakat bank tizimini raqobatbardoshligini ta'minlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirish zarurligini taqozo etmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Banklararo raqobat haqidagi nazariy qarashlarning evolyutsiyasi bank tizimida raqobatning rolini va ahamiyatini yanada chuqurroq o'rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Asli Demirguc-Kunt va Harry Huizinga (2004) o'zlarining "Bozor intizomi va depozitlarni sug'ortalash" nomli maqolalarida banklararo raqobatni tadqiq qilishadi. Bu ishda ular ikki omil – davlat tomonidan omonatlarni sug'ortalash tizimi va banklararo raqobatning o'zaro ta'sirini tahlil qilishgan. Ular banklararo raqobat bozor intizomini oshirishi va bank tizimi risklarini kamaytirishi mumkin degan xulosaga kelishadi. Banklar o'rtasidagi yuqori darajadagi raqobat resurslarni yanada ehtiyyotkorlik bilan boshqarishga va ishonchli bank amaliyotlari o'tkazishga undaydi, chunki banklar mijozlar ishonchi va o'z biznesining barqarorligi uchun raqobatlashishi kerak deb ta'kidlashadi.

Xavier Vives (2016) "banklararo raqobat bank tizimining samaradorligiga hissa qo'shishini va monopollashish darajasini pasaytirishi, innovasiyalar va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishini ta'kidlaydi.

Bu ikkala yondashuv ham banklararo raqobat, moliyaviy barqarorlik va bank tizimining samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Ularda bank sohasida raqobatning ahamiyati va uning bank tizimining samaradorligi hamda barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan.

Xavier Vives (2016) shuningdek, bozor konsentrasiyasi va uning banklararo raqobat va barqarorlikka ta'siri bilan bog'liq masalalarni o'rganadi. U raqobatning bozor tuzilishi va bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan turli mexanizmlarni muhokama qiladi. U raqobat va barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun samarali tartibga solish zarurligi haqidagi g'oyalarni ilgari suradi.

Fikrimizcha, Xavier Vivesning (2016) raqobat va barqarorlik o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratishi bank sektorida samarali boshqaruvi siyosatini shakllantirish va nazorat qilishda ushbu omillarni hisobga olish zarurligi bilan izohlanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim Mirzaev (2009) "banklararo raqobat deb, odatda, tijorat banklari o'rtasida resurslar jalb qilish va mijozlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish borasida yuzaga keladigan raqobat tushuniladi" deb izohlaydi.

Arifxodjaevaning (2016) fikriga ko'ra, "banklararo raqobat avvalambor mijoz uchun kurashdan iborat bo'ladi. Qaysi bankning mijozlari ko'p va obro'li bo'lsa o'sha bankning o'z manfaatlarini yuzaga chiqarish imkoniyatlari yuqoridir".

Bizning fikrimizcha, tijorat banklarida raqobat nafaqat mijozlarni ko'proq jalb qilish, balki resurslar, kreditlar va boshqa moliyaviy mablag'larga bo'lgan kurash sharoitida ham yanada kengroq namoyon bo'ladi.

Mahalliy olimlardan Qurbanov o'zing ilmiy tadqiqotlarida bank tizimining barqarorligini ta'minlashda bank kapitallashuv darajasini oshirishning zamонавиy yo'llariga alohida e'tibor qaratgan (Kurbanov, 2022; Kurbanov, Asirarov, 2022; Kurbonov, 2021).

Yana bir iqtisodchi olim Yuldasheva (2022) "Bank raqobati – moliya bozorining ishtirokchilari, xususan, kredit tashkilotlari o'rtasidagi kreditlar, depozitlar va boshqa bank mahsulotlarini sotish uchun kurash sifatida qaralishi, hamda doimiy tadqiqotlar o'tkazib borilishi kerak bo'lgan jarayon sifatida baholanishi lozim" deya ta'kidlagan.

Xorijlik ayrim iqtisodchilarning fikriga ko'ra "banklararo raqobat banklarning riskli faoliyatini kuchaytirishi mumkin, chunki banklar o'z mijozlariga qulay shartlar taklif qilish orqali ko'proq mijozlarni jalb qilishga intiladi, bu esa ularning riskli aktivlarini oshirishi mumkin. Boshqa tomondan,

raqobat banklarni yanada samarali ishlashga va innovatsion yondoshuvlarni joriy etishga undaydi, bu esa ularning barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi" (Klapper, Leora & other, 2009).

Yana bir boshqa xorijlik olimlar "Bozor raqobati kuchayganda, banklar mijozlarni jalb qilish uchun kredit foiz stavkalarini pasaytirishga va depozit stavkalarini oshirishga majbur bo'lishi mumkin, bu esa ularning daromad marjasini pasaytiradi va moliyaviy mustahkamligiga ta'sir qilishi mumkin (Christian, Kersting & other, 2020)" deb ta'kidlashadi.


Umuman olganda, banklararo raqobat sharoitda tijorat banklari barqarorligini ta'minlashning zarurligi shundaki, banklar raqobatga kirishish natijasida o'zlarining kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilishi, bank xizmatlari bozoridagi roli va ulushini yanada oshirish uchun strategiyalar ishlab chiqishi, mijozlar bilan o'zaro munosabatlarda innovatsion yondoshuvlarni yanada kuchaytirish imkoniyatlarini oshirishlari mumkin bo'ladi (Jurayev, 2021).

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolani tayyorlashda mamlakatimizdagi banklararo raqobat darajasi va uning banklar barqarorligini oshirish bo'yicha amaliy ma'lumotlar tahlil qilindi va barcha foydalilanigan ma'lumotlar amalidagi qonun hujjatlari va Markaziy bankning statistik ko'rsatkichlari asosida muallif tomonidan tadqiq qilindi. Maqolada guruhlashtirish, taqqoslash, tizimli yondashuv, va tarkibiy tahlil usullari ko'llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Banklararo raqobat haqiqatan ham bank sohasida muhim omil hisoblanadi. Bu banklararo bozorda banklar o'rtasidagi raqobat muhiti va dinamikasini bildiradi, bu yerda banklar bir-biridan kredit oladi va mablag'lar jalb qiladi. Banklararo raqobatning ahamiyatini ko'rsatib beradigan bir nechta asosiy jihatlar mavjud:



1-rasm. Banklararo raqobatni asosiy jihatlari³⁸

1. Qarz olish xarajatlarini pasaytirish: Banklararo kuchli raqobat banklar uchun qarz olish xarajatlarini kamaytirishga olib kelishi mumkin. Banklar boshqa banklarning mablag'larini jalb qilish uchun raqobatlashganda, ular banklararo kreditlar bo'yicha qulayroq foiz stavkalarini taklif qilishlari mumkin. Bu, pirovardida, qarz oluvchi bankka foya keltiradi, chunki u pul mablag'larini arzonroq narxda olishi mumkin, bu esa korxonalar va jismoniy shaxslar uchun yanada qulayroq kredit stavkalarini taklif etish imkonini beradi.

³⁸ Muallif tomonidan tuzildi.

2. Mablag'larni samarali taqsimlash: Banklararo raqobat banklarni o'z mablag'larini eng samarali va kreditga layoqatli qarz oluvchilarga ajratishga undaydi. Banklar ishonchli va kreditga layoqatli kontragentlarga ularning daromadlarini optimallashtirish va obro'sini saqlab qolish uchun kredit berishga intiladi. Ushbu raqobat bosimi mablag'larni yanada samarali taqsimlashga yordam beradi va kuchli o'sish potensialiga ega bo'lgan tarmoqlarga kredit berishda yordam beradi.

3. Innovatsiyalar va xizmatlar sifati: Banklararo raqobat bank sektorida innovatsiyalarni rag'batlantirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishi mumkin. O'zlarini afzalliklarini ko'rsatish va ko'proq mijozlarni jalb qilish uchun banklar innovatsion moliyaviy mahsulotlarni, ilg'or texnologik yechimlarni va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilashga intilishadi. Raqobat asosidagi ushbu innovatsiyalar mijozlarga o'zgaruvchan ehtiyojlarni qondirish imkonini beradigan ko'proq mahsulot va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshiradi.

4. Bozor samaradorligi va barqarorligi: Sog'lom banklararo raqobat muhiti resurslarni jalb qilish va kreditlash amaliyoti borasida bozor sharoitlarini yanada to'g'riroq baholash orqali bozor samaradorligini oshirish imkonini beradi. Banklar raqobatlashganda avvalambor ular samarali faoliyat yuritish, risklarni samarali boshqarish va moliyaviy barqarorlikni saqlash uchun intiladi. Bu turli xil iqtisodiy zARBALARGA YAXSHIROQ bardosh bera oladigan mustahkam va barqaror bank sanoatini yaratishga yordam beradi.

5. Moliyaviy inklyuziya: Banklararo raqobat banklarni o'z xizmatlarini yetarli darajada bank xizmatlari ko'rsatilmoytagan bozorlarga kengaytirishni rag'batlantirish orqali moliyaviy inklyuzivlikni rivojlantirish imkonini beradi. Raqobat muhitida banklar moslashtirilgan mahsulotlarni taklif qilish va ularning geografik qamrovini kengaytirish orqali yangi mijozlar segmentlarini oshirishga xizmat qiladi. Bu avvallari yetarli darajada xizmat ko'rsatilmagan jismoniy shaxslar va korxonalar uchun bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yanada yaxshilashga yordam beradi.

1-jadval

Banklararo raqobatning ijobiylari va salbiy tomonlari³⁹

t/r	Ijobiylari	Salbiy tomonlari
1.	Raqobat banklarni yanada samaraliroq faoliyat yuritishga, xarajatlarni kamaytirishi va o'z mijozlariga sifatliroq xizmatlar hamda mahsulotlarni taklif qilishi uchun xizmat qiladi.	Kuchli raqobat banklarni bozordagi ishtirokini saqlab qolish yoki oshirish uchun katta tavakkalchilikka undashi df bu bank tizimining barqarorligiga putur etkazishi mumkin.
2.	Mijozlarni jalb qilish va ushlab turish uchun banklar yangi texnologiyalarni joriy etishlari va innovatsion moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqishga undaydi.	Haddan tashqari kuchli raqobat banklarning rentabelligini pasaytirishi, ularning barqarorligiga putur etkazishi va bank inqirozlari ehtimolini oshirishi mumkin.
3.	Raqobat iste'molchilar va biznes uchun bank xizmatlari narxini pasaytiradi.	Agar raqobat faqat narxga qaratilgan bo'lsa, banklar o'zlarini marjalarini pasaytirishlari mumkin, bu esa ularni bozordagi o'zgarishshlarga qarshi himoyasiz qiladi.
4.	Kuchliroq raqobat banklarni mijozlarning keng doirasiga xizmat ko'rsatishga undashi va shu bilan iqtisodiyotda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilaydi.	Banklar ko'proq mijozlarni jalb qilish uchun kreditlash standartlarini yengillatishi mumkin, bu esa muammoli kreditlarning ko'payishiga va moliyaviy beqarorlikka olib kelishi mumkin.

Banklararo raqobatni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar ko'pincha shaffoflikni ta'minlash, bozorga kirish uchun to'siqlarni kamaytirish va adolatli raqobat amaliyotini qo'llash kabi tartibga soluvchi choralarini o'z ichiga oladi. Sog'lom raqobat va risklarni boshqarish o'rtaida muvozanatni saqlash bank tizimining barqarorligi va yaxlitligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

³⁹ Muallif tomonidan tuzildi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari⁴⁰

Ko'rsatkichlar nomi	01.01. 2019-y.	01.01. 2020-y.	01.01. 2021-y.	01.01. 2022-y.	01.01. 2023-y.
YaIM	407 514,5	511 838,1	580 203,2	734 658,3	888 342,5
Bank aktivlari, mldr. so'm	214 420	272 727	366 121	444 922	556 746
Aktivlarning YaIMga nisbati, foizda	52,6	53,3	63,1	60,6	62,7
Kredit qo'yilmalari mldr. so'm	133 751	211 581	276 975	326 386	390 049
Kredit qo'yilmalarining YaIMga nisbati, foizda	32,8	41,3	47,7	44,4	43,9
Jalb qilingan jami depozitlar, mldr. so'm	70 001	91 009	114 747	156 190	216 738
Depozitlarning YaIMga nisbati, foizda	17,2	17,8	19,8	21,3	24,4
Jami kapital, mldr. so'm	26 679	51 031	58 162	70 191	79 565
Jami kapitalning YaIMga nisbati, foizda	6,5	10,0	10,0	9,6	9,0

Mamlakatimiz bank tizimining joriy holatini tahlil qilar ekanmiz, so'nggi 5 yillikda mamlakat tijorat banklarining barcha asosiy ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasiga ega bo'layoutganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, tijorat banklari aktivlari 2018-2022-yillarda qariyb 2,5 barobarga oshgan bo'lsa, uning YaIMga nisbatan salmog'i 10 foizga oshgan. Yalpi ichki mahsulotga nisbatan bank aktivlarning o'sishi iqtisodiyotda kapitalning yanada samarali taqsimlanishiga yordam berish bilan birga kreditlar va boshqa moliyaviy xizmatlar ko'rsatish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, banklar o'z aktivlarini oshib borishini ta'minlagan holda ular bilan bog'liq risklarni to'g'ri boshqara olsa, bu holat mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta'minlanishiga ijobiy hissa qo'shami. Banklarning aktivlarini o'sishi mos ravishda bank kredit portfelini ham o'stirish imkonini beradi. Mamlakatimiz bank tizimida kredit portfelining ijobiy o'sish tendensiyasi namoyon bo'lmoqda. Bank kreditlarining YaIMdagi salmog'i 2018-yilda 32,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 43,9 foizgacha o'sgan. Bu holat mamlakat bank tizimining iqtisodiyotning "lokomotivi" sifatidagi roli oshib borayotganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklari aktivlарining o'sib borishi, kredit qo'yilmalari hajmining barqaror o'sishida jalb qilingan mablag'larning, jumladan bank depozitlarining barqarorlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Tahlil qilinayotgan davrda bank tizimi depozitlarining mutlaq summada o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Masalan, 2018-yilda banklarning depozitlari 70,0 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 2016,7 trln. so'mni tashkil etib, so'nggi 5 yilda 3 barobardan ko'proq oshganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, banklarning moliyaviy barqarorligini tavsiylovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblangan bankning kapitali ham barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Mamlakatimiz tijorat banklari kapitali so'nggi 5 yilda 3 barobarga oshib, 2022-yil yakunida 79,5 trln. so'mni tashkil qilgan. 2018-2022-yillar oralig'ida bank kapitalining YaIMga nisbatan ham ijobiy o'sishi kuzatilgan. Xalqaro ekspertlar tijorat banklari kapitalinnig mamlakat YaIMga nisbati 6 foizdan yuqori ko'rsatkichni tashkil etsa, bu mamlakat bank tizimi kapitallashuvining me'yor darajasida ekanligini e'tirof etishadi.

Regulyativ kapitalni ko'paytirish odatda banklarning moliyaviy mustahkamligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki bu ularning yo'qotishlarga qarshi turish qobiliyatini oshiradi va bankrotlik ehtimolini kamaytiradi. O'zbekiston Respublikasida boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi, moliya tizimining barqarorligini mustahkamlash maqsadida tijorat banklarining regulyativ kapitali hajmiga qo'yiladigan talablar oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankinig tegishli me'yoriy xujjalariiga kiritilgan o'zgarishlarga asosan tijorat banklari kapitalining minimal miqdori 2025-yil 1-yanvardan e'tiboran besh yuz milliard so'mni tashkil etishi belgilangan.

⁴⁰ www.cbu.uz –O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining regulyativ kapitali, depozitlari va kreditlari hajmi, (yil oxiriga, trln. so'm) (Ibrohimovich, 2019)

Ko'rsatkichlar	Yillar					2022 yilda 2018 yilga nisbatan o'zgarishi, marta
	2018	2019	2020	2021	2022	
Regulyativ kapital	26 679	51 031	58 162	70 191	79565	3,0
Depozitlar	70 001	91 009	114 747	156 190	216738	3,1
Kreditlar	133 751	211 581	276 975	326 386	390049	2,9

Depozitlar banklar uchun kreditlashning assosiy mablag' manbai bo'lib, aholi va korxonalarining bank tizimiga bo'lgan ishonchining muhim ko'rsatkichidir. Depozitlar darajasining oshishi odatda bank likvidligini barqarorlashtirish va oshirishga yordam beradi, bu ham uning barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, qisqa muddatli depozitlar ulushining sezilarli darajada oshishi likvidlik xavfini oshirishi mumkin, chunki bu bankdan omonatchilarga mablag'larni qaytarishga yuqori darajada tayyor turishni talab qiladi⁴¹.

Banklar tomonidan berilgan kreditlar ularning daromadlarining asosiy manbai bo'lishi bilan birga katta xavflarni ham yuzaga keltiradi, jumladan kredit riski, foiz stavkalari riski (bank marjasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan foiz stavkalarining o'zgarishi) va kontsentratsiya xavfi (bir nechta qarz oluvchilarga berilgan yirik kreditlar bankning moliyaviy holatiga bog'liqligini oshiradi). Kredit risklarini samarali boshqarish bank tizimi barqarorligining asosiy omili hisoblanadi.

Tahlil ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimiz bank tizimining kapitali, kredit va depozit bazasi barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Biroq, mamlakatimizda banklar depozitlari miqdorining kreditlarga nisbatan salmog'i pastligicha qolmoqda. Bu holat mamlakat bank tizimining resurs salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki banklararo raqobat sharoitida tijorat banklarining moliyaviy resurslar bozoridagi raqobatlashuvi resurslar narxini oshishiga va banklarning foiz siyosatining samaradorlini pasaytiradi. Bu esa, tijorat banklarining daromaliligi va rentabellik darajasini pasayishiga olib keligshi mumkin.

Shu sababli tijorat banklari banklararo raqobat sharoitida resurslardan oqilona foydalanish bilan birga, o'zlarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ham to'g'ri boshqara olishlari talab etiladi.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan bank tizimini isloh qilish borasida qabul qilinayotgan strategiyalarning bosh pirovard maqsadi ham avvalambor, tijorat banklari o'rtaisdagi sof raqobat muhitini shakllantirish orqali mamlakat bank tizimini barqarorligini yanada oshirishga qaratilgan.

2020-yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinib, unda:

bank tizimi aktivlarining umumiyligi hajmida davlat ulushi bo'lмаган banklar aktivlari ulushini joriy 15 foizdan 2025-yilga kelib 60 foizgacha oshirish;

banklar majburiyatlarining umumiyligi hajmida banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlarini ulushini joriy 28 foizdan 2025-yil yakuniga 70 foizgacha oshirish;

2025-yilga kelib davlat ulushi mavjud kamida uchta bank kapitallariga zarur tajriba, bilim va obro'ga ega kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish;

xalqaro moliya institutlari ko'magida «Ipoteka-bank» ATIB, «O'zsanoatqurilishbank» ATB, «Asaka» ATB, AT «Aloqabank», «Qishloq qurilish bank» ATB va «Turonbank» ATBdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, bunda birinchi bosqichda ularni institutsional o'zgartirishni (faoliyatini transformatsiya qilish), ikkinchi bosqichda esa davlat aksiyalari paketini sotish;

moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish,

⁴¹ www.cbu.uz –O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

shuningdek, banklar faoliyatiga xos bo'lмаган funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish kabi vazifalar belgilangan.

Biroq tahlil ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, davlat ulushi mavjud tijorat banklarining bank tizimidagi o'rni va bank moliyaviy xizmatlari bozoridagi ulushi yuqoriligicha qolmoqda.

4-jadval

Bank tizimining taqqoslama ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot⁴²

Ko'rsatkichlar	01.01.2022-y.				01.01.2023-y.			
	Aktivlar	Majburiyatlar	Kreditlar	Depozitlar	Aktivlar	Majburiyatlar	Kreditlar	Depozitlar
Jami	444922	374005	326386	156190	556746	477181	390049	216738
Davlat ulushi mavjud banklar, trln. so'm	362422	304727	280074	104248	435136	373216	324681	135534
Boshqa banklar, trln. so'm	82501	69278	46312	51942	121611	103964	65368	81203
<i>Davlat ulushi mavjud banklar ulushi, foizda</i>	<i>81,5</i>	<i>81,5</i>	<i>85,8</i>	<i>66,7</i>	<i>78,2</i>	<i>78,2</i>	<i>83,2</i>	<i>62,5</i>
<i>Boshqa banklarning ulushi, foizda</i>	<i>18,5</i>	<i>18,5</i>	<i>14,2</i>	<i>33,3</i>	<i>21,8</i>	<i>21,8</i>	<i>16,8</i>	<i>37,5</i>

Jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakatimiz bank tizimida davlat ulushi mavjud banklarning bank xizmatlari bozoridagi ulushi sezilarli darajad yuqori ekanligi ko'zga tashlanmoqda. 2021-yilda bank tizimi aktivlarining 81,5 foizi, majburiatlarning 81,5 foizi, kreditlarning 85,8 foizi, depozitlarning 66,7 foizi mazkur banklar hissasiga to'g'ri kelmoqda. 2022-yilda bank xizmatlari bozorida banklararo raqobat muhitni ijobiy tendensiyalarni namoyon qilgan bo'sada, davlat ulushi mavjud tijorat banklarining ulushi yuqoriligicha saqlanib qolmoqda.

Davlat ulushi mavjud bo'lgan eng yirik banklar beshtaligi (O'zbekiston Milliy banki, "O'zsanoatqurilishbank", "Asakabank", "Ipotekabank", "Agrobank") ning bank tizimi aktivlaridagi ulushi 70,9% dan 60,5% gacha kamaydi. Davlat ulushi mavjud bo'lgan boshqa banklarning ulushi 11% dan 18% gacha oshgan bo'lsa, xususiy banklarning ulushi 18,1% dan 21,5% gacha ko'paydi.

Eng yirik banklar beshtaligining jami kredit portfelidagi ulushi 77% dan 64% gacha kamaydi. Xususiy banklarning ulushi 11,6% dan 16,6% gacha ko'paygan bo'lsa, davlat ulushi mavjud boshqa banklarning ulushi 19% ga yetdi.

Depozitlar bozorida davlat ulushi mavjud bo'lgan banklar va xususiy banklar o'rtasidagi raqobatdan ko'ra, xususiy banklar o'rtasidagi o'zaro raqobat kuchliroq hisoblanadi. O'zKDB bankning ushbu bozordagi ulushi 8,6% dan 3,6% gacha kamaygan bo'lsa, "Kapitalbank" o'z ulushini 4,8% dan 10,9% ga yetkazib oldi. "Hamkorbank" depozitlari ulushi 5,5% dan 3% gacha kamaydi.

Depozitlar uchun raqobatning kuchayishi muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining jozibadorligida ham o'z aksini topadi. Masalan, 2017 yilning aprel oyida yuridik shaxslar muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi 5,8% ni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilning dekabr oyiga kelib 12,1% gacha ko'tarildi, 2022 yilning dekabr oyida esa 16,9% ga yetdi. Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha stavka esa so'nggi 2 yilda 20% ni tashkil etmoqda⁴³.

Raqobat sharoitida banklar doimiy ravishda o'z xizmatlarini takomillashtirib borishga, mijozlarni jalg qilishga va ularga yanada qulay shart-sharoitlarni taklif qilishga majbur bo'lmoqda. Bu bank tizimi samaradorligini oshirish, aholi va korxonalar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish

⁴² www.cbu.uz –O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

⁴³ http://i1.md.uz/- Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institut ma'lumotlari

imkoniyatlarini yaxshilash, shuningdek, bozor ishtirokchilarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, banklararo raqobat alohida banklarning va umuman butun bank tizimining moliyaviy barqarorligini oshirishga yordam beradi. Raqobat banklarni risklarni boshqarishga yanada mas'uliyat bilan yondashishga, likvidlik va kapitalning yetarli darajasini ta'minlashga majbur qiladi, bu esa tizimli inqirozlar ehtimolini kamaytiradi.

Xulosa va takliflar

Banklararo raqobat bank tizimida asosiy rol o'ynaydi va uning barqarorligiga ta'sir qiladi. Mamlakatda banklararo raqobat muhitini yanada yaxshilash va bank tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida quyidagilarga e'tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz.

1. Bank sohasida raqobatni yaxshilash strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan monopoliyaga qarshi nazoratni kuchaytirish va bozorning barcha ishtirokchilari uchun teng sharoitlarni ta'minlash.

2. Banklararo raqobat va investitsion jozibadorlikni oshirish uchun yanada qulay muhitni ta'minlash maqsadida me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish.

3. Bank xizmatlari sifati va qulayligini oshirish uchun texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishni davlat omonidan qo'llab-quvvatlash.

4. Aholining barcha qatlamlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanishni ta'minlash uchun moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish dasturlarini amalga oshirish.

5. Adolatli va sof raqobat muhitini yaratish maqsadida banklar faoliyatining shaffofligini ta'minlash va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish.

Ushbu chora-tadbirlar O'zbekiston bank tizimidagi banklararo raqobat bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yordam beradi va yanada raqobatbardosh va inklyuziv moliya tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Arifxodjaeva M.I. (2016) *O'zbekiston Respublikasi bank tizimida raqobat va uni rivojlanishida innovatsion texnologiyalarning o'rni. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr.*

[Asli Demirguc-Kunt and Harry Huizinga.](#) (2004) Market discipline and deposit insurance. *Journal of Monetary Economics*, vol. 51, issue 2, 375-399.

Christian König gen. Kersting & Stefan Trautmann & Razvan Vlahu, (2020). "Bank instability: Interbank linkages and the role of disclosure," Working Papers 665, DNB.

Ibrohimovich, J. I. (2019). Deposit Base of Commercial Banks of Uzbekistan: Modern Status and Ways to Strengthen. *Indonesian Journal of Law and Economics Review*, 3, 10.21070/ijler.2019.V3.35. <https://doi.org/10.21070/ijler.2019.V3.35>

Jurayev PhD, I. (2021). Urgent Issues To Increase The Sustainability Of The Banking System Of The Republic Of Uzbekistan. *International Finance and Accounting*, 2021(6), 12.

Klapper, Leora & Ariss, Rima & Berger, Allen. (2009). Bank Competition and Financial Stability. *Journal of Financial Services Research*. 35. 99-118. 10.1007/s10693-008-0050-7.

Kurbanov, R. (2022). BANKLAR KAPITALLASHUV DARAJASINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI. *Ekonomika i obrazovanie*, 23(4), 96-101.

Kurbanov, R. B., & Asirarov, R. Z. (2022). The role of the bank's initial public offering in increasing the capitalization of commercial banks. *Asian Journal of Research in Banking and Finance*, 12(4), 30-36.

Kurbanov PhD, R. (2021). Analysis of efficiency indicators of private banks activity. *International Finance and Accounting*, 2021(1)

Mirzaev F.I. (2009) *O'zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning konseptual asoslari. Iqtisod fanlari doktori... diss. avtoreferati. – Toshkent:O'zbekiston Respublikasi Bank-moliyaakademiyasi, - 41 b.*

Xavier Vives. (2016) *Competition and Stability in Banking: The Role of Regulation and Competition Policy*. Published by: Princeton University Press. Pages: 344.

Yuldasheva S.Sh. (2022) *O'zbekistonda tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishning shart-sharoitlari. Iqtisodiyot va ta'lim / 5-sон.*